

**Zokirova Karimaxon Raxmiddin qizi**

**Farg‘ona davlat universiteti Filologiya fakulteti 22.88-guruh 2-bosqich talabasi**

---

## **"HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDAGI MAQOLAT VA HIKOYATLARNING IJTIMOIY HAYOTDAGI O‘RNI**

**ANNOTATSIYA:** O‘zbek mumtoz adabiyotining cho‘qqisi bo‘lgan Alisher Navoiy "Xamsa"si mumtoz adabiyotning noyob va o‘lmas durdonasidir. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asari qomusiy asar hisoblanad. Buyuk mutafakkir dostonni yaratishda Qur‘onu karim oyatlari va hadisi shariflardan o‘rinli foydalangan va yuksak she‘riy san‘at na‘munalarini namoyish qilgan. Asarning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o‘ta dolzarb bo‘lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug‘ mutafakkirning teran axloqiy-ma‘naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan. Asardagi hikoyatlar esa maqolatlarda ilgari surilgan tayanch g‘oyalarni kitobxon shuuriga yanada teranroq ta‘sir etishi, uning mavzu bilan mukammalroq tanishishiga imkon yaratadi. “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) janr xususiyati va kompozitsiya tuzilishi jihatidan “Xamsa”ning boshqa dostonlaridan tubdan farq qiladi. “Hayrat ul-abror” falsafiy-ta‘limiy dostonidir. Bu asarida Navoiy falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta‘limiy qarashlarini bayon etish, kishilarga ta‘lim va o‘git berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

**Kalit so‘zlar:** „Hayrat ul-abror“, iymon, islom, komil inson, din, karam va saxovot, yoshlik, qarilik, sabr, vafo, hayo, Shayx Boyazid Bistomiy.

---

### **KIRISH**

"Hayrat ul-abror" ( „Yaxshi kishilarning hayratlanishi“) dostonida hikoyatlarning bir qismi qadimgi hadislar va qissalar asosida shakllangan, shuningdek, muallifning o‘zining hayotiy ta‘lim va ma‘naviyatga oid fikrlari va xayollarini ifodalagan. [1.14] Ular o‘zlariga xos insonlarning ma‘naviy hayoti va dunyoviy tajribalari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zlarida bir nechta diniy va dunyoviy darslar o‘zlashtirilgan. "Hayrat ul Abror" dostonining o‘ziga xos xususiyatlari juda ko‘p. Asr adibning fikr-mulohazalari va falsafiy tushunchalari orqali insoniy yaratilishning o‘ziga xos jihati haqida fikrlarni ifodalaydi. "Hayrat ul Abror" dostoni tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki u insonlarga adolat, erkinlik, sodiqlik va do‘stlik kabi asosiy qadriyatlar haqida o‘rgatishni maqsad qilgan. Bu doston insonning komilligi va insonchilik sifatlarini rivojlantirishda o‘ziga xos o‘rniga ega. [5.25] Unda ko‘p hikoyat va maqolatlar orqali insonning hayoti, uning muammolari va ularni hal qilish yo‘llari ko‘rsatiladi. Bu esa o‘z fikrlarini rivojlantirish, insonchilik, adabiyot va madaniyatga qiziqishni oshirishga yordam beradi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Navoiy dostonidagi avvalgi maqolat iymon kalimasining sharhidan iborat. Iymon kalimasida ollohning yakka-yagonaligiga, uning farishtalariga va kitoblariga, payg‘ambarlariga va oxirat - qiyomat kunning muqarrarligiga, yaxshilik va yomonlik taqdiridan ekanligiga, so‘ngra o‘limdan keyin qayta tirilishga iymon keltirilgan. Chunki bu bejiz emaski, dostonning bosh g‘oyasi komil insonni vasf etishdir. Komil inson bo‘lish uchun esa albatta iymonning shartlariga amal qilish zarurdir. Iymonning oltita shartining hammasi inson qalbida jo bo‘lmog‘i kerakdir. Demak, insoniylikning birinchi nishonasi iymonli bo‘lish. Iymon - insonni hayvondan ajratuvchi asosiy sifat, chunki Navoiy fikricha, garchi nutq, so‘z insonni hayvondan ajratuvchi belgisi bo‘lsa-da, agar kishida iymon bo‘lmasa, u inson emas, balki gapiruvchi hayvondir. Iymon shahrida berilgan hikoyatda Shayx Boyazid Bistomiyga g‘amginligi sababini so‘ragan muridga Shayx bu dunyoda

haqiqiy insonlar kamayib ketganligidan xafaman deb javob bergani ham bejiz emasdir. Chunki hozirgi kunda unday insonlar sonining sanog'i yo'q. Bir-biriga hayvondek muomala qilib, hayvondek kun kechirayotganlar. Ularni komil inson deb atash tugul, oddiy bir inson deb aytgani ham achinasan kishi. Ijtimoiy hayot ham shunday jadal sur'atlarda rivojlanmoqdaki, insonning aqlini shoshirib qo'ymoqda. Nafs to'laonli drajada iymonga daxl qila olyapdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Din qalbda, yurakda emas balki obro-e'tibor va katta kasb egalariga qandaydir vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Navoiy aytganidek islom davlatida yashashning o'zigina musulmon bo'lish uchun yetarli emas. Islom qalbda bo'lishi kerak, masofani esa ahamiyati yo'q. Alloh hamisha yuragimizda, tilimizda, zikrimizda bo'lsa kifoya. Navoiy keltirib o'tgan to'rtinchi maqolatning hikoyatidek, diyonatsiz dindorlar ommani aldaydigan darajada tashqi suratlarini so'fiylarga moslashtirishgan. Xuddi shunday bizning ayni ijtimoiy hayotimizda ham islomni, dinni niqob qilib olib juda ko'p insonni dindan chiqishiga olib borishmoqda. Ular ham o'zini tanigan, iymoni bor insonlarni osonlikcha yo'ldan urmaydilar. Dindan ajrolmaydilar. Hikoyatlar xuddi zanjir misol bir-birini to'ldirib kelgan. Chunki yuqorida dastlabki hikoyat iymon haqida keyingisi esa iymonga ega bo'lgan inson, albatta, islom dinida bo'lishini ta'kidlagandek davom etadi. Musulmon inson bo'lishning ziynatlaridan biri bu karam va saxovatdir. Bu ulug' ezguliklardir. Buni ham xuddi islom dinini niqob qilgan kabi o'zlarini saxovat olamining kishisidek tutib, ko'r korona insonlarga saxovat qilayotgan insonlarni son sanog'i oshib bormoqda. Ayniqsa jamiyatimiz hayotida ijtimoiy tarmoqlari judayam rivojlanganiga asosiy e'tiborni qaratsak ham, ular orqali ehson pullarini yig'ayotgani insonlar soni ham ko'pligini ko'ramiz. Bu yaxshi albatta, muhtoj insonlarga yordam berilmoqda. Lekin ularning hammasi ham muhtojlarga ulashilmayapti. Chunki mahallalardagi, qishloqlardagi farzandini davolashga muhtoj ayollar ham murojaat qilganida, unga yordam berishlarini aytishadi. Ammo yig'ilgan mablag'larning yarmini o'zlari uchun olib qolishlarini ta'kidlashadi. Bu holatlarni jamiyatning og'riqli nuqtalaridan biri desak ham bo'ladi. Jamiyatning ongini rivojlantirish oson emas yaqin yillarda. Ilm insonlarni ongini oshiradigan eng yaxshi yo'ldir. Navoiy aytib o'tganidek, ilm yo'li fidoyilik va irodani talab qiladi. Shu bilan birga ham vaqtni talab qiladi. Boylik mansabni ortidan quvimasdan, ilm yo'lini tutsak, ziyoga erishamiz. Lekin, ayni rivojlangan zamonda pul, maldunyo yuqori darajaga ko'tarilgani kundek ravshan. Pulni deb o'z yaqinlaridan, chin do'stlaridan kechib ketilyapti yoki o'z manfaati yo'lida qurbon qilishyapti. Navoiyning maqolatlarida ketma-ketlikda hikoyatlar uyg'unligiga ziynat berilgan. Do'st tushunchasi, do'stga vafo, unga chin sadoqat, hurmat qilish aslida do'stlikdir. Sabr-qanoat bilan hamma narsaga erishish kerakligi maqolatlardagi hikoyatlarda chuqur ma'nolar orqali ifodalangan. Yoshlikning davr-u davroni, zavqi-shavqini tolaonli darajada zavq qilish, qarilikning o'ziga yarasha gashtini surish masalasi ham yoritilgan. Har bir hikoyatda vaqtni besamar o'tkazmaslik g'oyasi ilgari surilgan. Shukronalik, vafo, hayo, sodiqlik, sabr, ilmlilik, saxovatlilik kabi juda ko'p komil inson xislatlari hamma hikoyatlarda o'z ta'riflarini topa olgan. Yuqorida aytilgan, ya'ni maqolat va hikoyatlarda komil inson tushunchasi ilgari surilgan degan fikrning isbotini hikoyatlarning hammasini o'qib, tushungan inson anglab olish qiyin emas, albatta. Komil inson degani xato qilmaydi degan fikrga borilmaydi. Inson nuqson qiluvchi, ayb qiluvchidir. Muhimi ularni sababini tushunish va xatolarni bartaraf eta olishdir.

## **XULOSA**

"Hayrat al-abror" dostonidagi maqolatlar ichidagi hikoyatlari anu shu maqolatlarning g'oyalarini tasdiqlashga xizmat qilgan. Ushbu dostonning asosiy mavzulari insoniy munosabatlarning o'zgarishi, inson qadr-qimmati va odamlarning ijtimoiy aloqalari ustida o'ylash va tafakkur qilishdir. Ushbu doston asosan insoniyatning qadriyatlarini, his-tuyg'ulari va o'z fikrlarini o'zgartirishi va boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lishini ko'rsatadi. Bu esa ijtimoiy hayotda insonlar o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishiga yordam beradi va o'z fikrlarini shakllantirishga ko'makchilik qiladi. Doston ijtimoiy masalalarga oid ko'plab mantiqiy, adolatli, va insoniy qadriyatlariga oid hikoyatlar va maqolatlarni o'z ichiga oladi, bu esa o'qituvchilar,

o'quvchi va ommalarga o'z fikrlarini shakllantirishda, dunyoni anglashda va insoniy qadriyatlarini tushunishda yordam beradi. Dostondagi hikoyatlarning har biri ibrat bo'lishga ximat qilgan.

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Алишер Навоий. Хамса, Танкидий матн, Нашрга тайёрловчи П. Шамсийев. Т.: "Фан", 1960 й.
2. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror". MAT. 20 yillik. Т.: Fan, 1991. 7-jild.
3. Алишер Навоий. Хамса: Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик. Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.6.
4. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Т.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2006.
5. Мухддинов МД. Комил инсон - адабиёт идеали. - Т.: Маънавият, 2005.